

TARIX

1. O'rta asrlarda Fransiyada markazlashtirish jarayoni ketayotgan paytda qaysi toifa vakillari kuchli qirol hokimiyati tarafdori bo'lgan?

- A) shaharliklar, mayda va o'rta feodallar
 B) yirik diniy va dunyoviy feodallar
 C) mayda, o'rta va yirik feodallar
 D) shaharliklar, graf va gersoglar

2. Yevropada zamonaviy ko'rinishidagi ilk bank qaysi shaharda paydo bo'lgan?

- A) Genuyada B) Rimda C) Londonda
 D) Madridda

3. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.


- A) Sosoniylar davlati – asoschisi Xusrav I
 Anushervon – poytaxti Choch shahri
 B) Safforiylar davlati – asoschisi Sobuqtegin –
 poytaxti Bag'dod
 C) Kidariylar davlati – asoschisi Abul Abbos
 Abdulloh – poytaxti Nishopur
 D) Turk xoqonligi – asoschisi Bumin – markazi
 Oltoy

4. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping.
 O'rta asrlarda Xitoy:

- 1) Li Yuan – Tan sulolasi; 2) Xubilay – Yuan sulolasi; 3) Chju Yuan-Chjan – ...

- A) Sun sulolasi B) Min sulolasi
 C) Xan sulolasi D) Sin(Chin) sulolasi

5. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 2, 5 B) 4, 6 C) 2, 4 D) 3, 6

6. 1660-yilda Angliya taxtiga o'tirgan qirolni aniqlang.

- A) Yakov I B) Karl I C) Yakov II
 D) Karl II

7. Meksika tarixiga "burjua inqilobi" nomi bilan kirgan dehqonlar qozg'oloni yengilgan bo'lsada, izsiz ketmadi. Uning natijalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Madero tomonidan qullikni bekor qilish to'g'risidagi qonun imzolandi; 2) hindularga fermerlik bilan shug'ullanishga imkon beruvchi qonun qabul qilindi; 3) latifundistlar tomonidan noqonuniy bosib olingan yerlar dehqonlarga qaytarildi; 4) demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi

- A) 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 1, 2

8. Yaponiya hukumati 1952-yilgacha qaysi davlat okkupatsion qo'shinlari tomonidan nazorat qilingan?

- A) AQSh B) Fransiya C) SSSR D) Xitoy

9. Qadimda richag (dastak) qonunini ishlab chiqqan olimni aniqlang.

- A) Demokrit B) Geraklit C) Arximed
 D) Aristotel

10. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida o'tloqlardan foydalanganlik uchun qanday soliq olingan?

- A) salg'ut B) afanak puli C) o'tov puli
 D) cho'p puli

11. Ma'lumki, Xiva xonligi tashkil topgan davrda uning hududi katta bo'lmagan. Xonlik hududi ... o'z ichiga olgan.


- 1) g'arbda; 2) shimolda; 3) janubda.
 a) Orol dengizi havzasini; b) Kaspiy dengizini;
 c) Artek daryosi hamda Saraxs atrofigacha bo'lgan hududini.

- A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c
 C) 1-c, 2-a, 3-b D) 1-b, 2-a, 3-c

12. Mulla Abdulqahhor (a), Ibrohimbek (b) qo'rboshilar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri moslab berilgan javobni aniqlang.
1) Uning qo'l ostida 20 nafar qo'rboshi birlashgan bo'lib, ular G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari hamda Nurota va Karmanada qizil askarlarga qarshi kurashini kuchaytirgan; 2) Sharqiy Buxoro hududida o'zining boshqaruv usulini amalga oshirdi; 3) Qizilqumda qizilaskarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida halok bo'lgan; 4) Qarshi yaqinidagi Qiliko'l atrofida Anvar Posho bilan uchrashib, maxsus bayonot bilan chiqib, qizil armiyaga qarshi muqaddas kurash e'lon qiladi.
A) a-1, 2, b-3 B) a-1, 4, b-2 C) a-1, 3, b-2
D) a-2, 3, b-4
13. XIX asr oxirida quyidagi qaysi davlatda hukmdorning asosiy tayanchi pomeshchiklar hamda pravoslav cherkovi bo'lgan?
A) Italiya B) Braziliya C) Rossiya
D) Portugaliya
14. XX asrning 20-yillari boshlarida Rossiyaning qator hududlarida ocharchilik yuz bergan davrda quyidagi qaysi shaxsning hurmati va qat'iy iltimosi tufayli G'arb davlatlari Rossiyaga yordam ko'rsatdi va minglab odamlar o'limdan qutqarib qolindi?
A) Eduard Dalad'e B) Vladimir Lenin
C) Charlz Daues D) Fritof Nansen
15. Misrdan giksoslarni haydab chiqarib, Yangi podsholik davrini boshlagan hukmdorni aniqlang.
A) Tutmos II B) Xufu C) Yaxmos
D) Tutmos III
16. Qaysi javobda qadimgi hind kastalari noto'g'ri ko'rsatilgan?
A) hunarmandlar – vayshilar
B) savdogarlar – shudralar
C) jangchilar – kshatriylar
D) kohinlar – braxmanlar
17. Quyida berilgan shaxslardan qaysilari Ukraina Prezidenti lavozimida faoliyat yuritgan?
1) L.Kravchuk; 2) M.Snegur; 3) V.Yushchenko; 4) P.Poroshenko; 5) I.Dodon
A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 2, 4, 5
18. Oktavian (Qadimgi Rim) faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) Mark Antoniy bilan ittifoq tuzdi va Brut boshliq respublika tarafdorlarini tor-mor etdi; 2) Misrga kelib, Misr malikasi Kleopatraga uylandi; 3) nikoh sovg'asi tariqasida Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini (viloyatlarini) berdi; 4) Senatdan imperator unvonini oldi
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3
19. Quyidagilardan Napoleon I qatnashgan janglar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1) Poltava jangi; 2) Borodino jangi; 3) "Xalqlar jangi"; 4) Kulikova jangi
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
20. Quyidagilardan I jahon urushidan keyin tashkil topgan Millatlar Ligasining asosiy vazifalarini aniqlang.
1) tinchlik uchun kurash; 2) rivojlanib kelayotgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish; 3) mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashish; 4) xalqlar o'rtasida hamkorlik va xavfsizlik masalalari
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
21. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.
- XX asrning II yarmi - XXI asr boshlari**
-
- a) mamlakatda musulmon bo'lmagan aholining o'z kiyimiga sariq belgi taqib yurishi haqida dekret qabul qilindi; b) 2001-yil Nyu-Yorkda amalga oshirilgan terrorchilik aktidan so'ng AQSh bu davlatni "xalqaro terrorizmning sherigi" deb atadi; c) mamlakat hududidan SSSR qo'shinlari olib chiqib ketildi; d) Semnondagi kosmodromdan "Safir-2" raketasi yordamida "Umid" nomli sun'iy yo'ldosh fazoga chiqarildi (2009-yil); e) mamlakat Islom Respublikasi hisoblanadi; f) "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasi amalga oshirilgan.
A) I-a, d; II-b, c; III-f B) I-b, c; II-d, e; III-f
C) I-b, c; II-a, d; III-e D) I-b, d; II-a, c; III-e


22. Quyida berilgan ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxsga tegishli ekanligini aniqlang.
"U Xurosonga noib etib tayinlangan. VIII asr boshida arablarning Movarounnahrda harbiy yurishiga boshchilik qiladi. Uning qo'shinlari 710-yilda Naxshab va Keshni bosib oldi. 715-yilning boshida esa Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, Koshg'argacha kirib boradi".
A) Nasr ibn Sayyor B) Qutayba ibn Muslim
C) Umar ibn Abdulaziz
D) Ubaydulloh ibn Ziyod
23. Qaysi Xiva xoni davrida Arabxon va Muhammad Amin inoq madrasalari qayta qurilgan?
A) Eltuzarxon B) Olloqulixon
C) Said Muhammadxon
D) Muhammad Rahimxon I
24. Quyidagi qaysi davlat XXI asr boshida Kopengagenda (Daniya) bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevropa Ittifoqiga qabul qilingan?
A) Polsha B) Fransiya C) Belgiya
D) Italiya
25. Qo'qon xoni Nasriddinbek va Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, quyidagi qaysi hududlar Rossiya ixtiyoriga o'tganligi belgilangan?
1) Qo'qon; 2) Namangan; 3) Andijon; 4) Chust.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
26. "Azizim" asarining muallifini aniqlang.
A) A.Frans B) V.Gyugo C) G.Man
D) Gi de Mopassan
27. Quyida berilganlardan qaysilari AQShning 1776-1800-yillardagi tarixi bilan bog'liq?
1) "Gomstedlar to'g'risidagi qonun";
2) Mustaqillik Deklaratsiyasi;
3) "Taraqqiyparvar davr"; 4) Konstitutsiya qabul qilinishi; 5) "dollar diplomatiyasi";
6) Prezident lavozimi joriy etilishi
A) 2, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 4, 6 D) 1, 3, 5

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud (davlat) tarixi bilan bo'g'liq voqeani aniqlang.



- A) 1847-yilda Liberiya mustaqil davlati tashkil topdi.
- B) 1855-yilda Kassa o'zini imperator deb e'lon qildi.
- C) Gollandlarga tegishli Kap koloniyasi barpo etildi.
- D) Erkin Oranj Respublikasi tashkil topdi.

29. Fransiyada Direktoriya boshqaruvi davrida fransuz qo'shinlari tomonidan qo'shib olingan va qaram respublikaga aylantirilgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) 1, 5 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 3, 6

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	Taniqli fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon tomonidan 1822-yilda jahonshumul ahamiyatga molik kashfiyotning amalga oshirilishi	Qadimgi Misr iyerogliflarini o'qish boshlandi
2.	1756-yilda Muhammad Rahimbiy Buxoroda hokimiyatni to'la egalladi	Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi
3.	Ukrainada 2014-yildagi «rangli inqilob»	Qrimning Rossiyaga qo'shib olinishi
4.	1903-yil AQSh Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon tashkil etdi	Panamaning mustaqil respublika deb e'lon qilinishi
5.	1920-yilning 2-sentabrida Qizil armiya tomonidan Buxoro shahrining egallanishi	Buxoro Xalq Sovet respublikasining tugatilishi

- A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 5